



IMMIGRANT NYU-YORKLIKLAR UCHUN MA'LUMOTNOMA

Nyu-York shahri immigrant maqomidan qat'i nazar o'zining barcha fuqarolarini qo'llab-quvvatlaydi. 200 tadan ortiq tilda mavjud bo'lgan yordam xizmatidan foydalanish telefon qo'ng'irog'i yoki tugmani bosish orqali amalga oshiriladi. **Qisqacha yo'l xaritamiz bilan tanishib oling:**

IMMIGRATSIYA BO'YICHA HUQUQIY YORDAM

- Dushanbadan jumagacha, soat 9:00 dan 18:00 gacha bepul, ishonchli immigratsiya bo'yicha huquqiy yordam uchun **ActionNYC 1-800 354-0365 raqamiga qo'ng'iroq qiling**
- Tanlangan davlat kutubxonalarida mavjud bo'lgan bepul fuqarolik arizasini to'ldirish bo'yicha yordam va moliyaviy maslahat uchun **311 raqamiga qo'ng'iroq qiling va "citizenship appointment" ("fuqarolik masalasi bo'yicha tayinlangan uchrashuv") so'zini ayting yoki NYC.gov/NYCcitizenship saytiga kiring**
- O'z mijozlaridan foydalanishga urinadigan immigratsiya masalalari bo'yicha xizmat ko'rsatuvchilardan ehtiyot bo'ling. Faqat ishonchli va litsenziyaga ega advokat yoki rasmiy vakillar xizmatidan foydalaning. Bu haqida savollar bilan soat 9:00 dan 20:00 gacha, dushanbadan jumagacha **New Americans Hotline 1-800-566-7636 raqamiga qo'ng'iroq qiling.**


OILALARNI HIMOYA QILISH VA HAQ-HUQUQLARINI OSHIRISH

-  **SOG'LIQNI SAQLASH**
Ba'zida har bir kishi yordamga muhtoj bo'ladi. Arzon shoshilinch va shoshilinch bo'lmagan tibbiy yordam barcha uchun davlat kasalxonalarida va klinikalarida va boshqa arzon klinikalar tomonidan taqdim etiladi. Kuniga 24 soat, haftada 7 kun, yiliga 365 kun, 200 dan ortiq tilda taqdim etiladigan NYC Well xizmati bu Nyu-York shahrida ruhiy salomatlik va/yoki giyohvandlik muammolari borasida yordam so'ragan har bir kishiga bepul, maxfiy, favqulodda holatlarda yordam beruvchi, axborot va ma'lumotlar berish xizmatidir. **1-888-NYC-Well raqamiga qo'ng'iroq qiling yoki WELL so'zini 65173 raqamiga SMS qilib yuboring.**
-  **TA'LIM**
Bolalaringizni maktabga yozdiring. Immigrant maqomidan yoki tilidan qat'i nazar Nyu-York shahrida yashovchi har bir bola davlat maktablarida ta'lim olish huquqiga ega. 4 yoshga to'lgan yoki endi 4 yoshga to'layotgan bolalar Pre-K maktabgacha ta'lim muassasalariga borish huquqiga ega va barcha shahar fuqarolari 5 yoshdan boshlab maktabni bitirgunlariga qadar yoki 27 yoshga to'lganlarida maktab yilining oxirigacha davlat maktabida o'qish huquqiga egadirlar. 3-K, Pre-K yoki boshqa Ta'lim vazirligiga tegishli muassasalarga yozdirish uchun **311 raqamiga qo'ng'iroq qiling yoki schools.nyc.gov/enrollment saytiga kiring.**
-  **CHORASIZ QOLGANLARGA OZIQ-OVQAT VA BOSHQANA**
Muhtoj bo'lganlarga bepul ovqat. Nyu-York shahri bo'ylab maxsus joylarda muhtoj kishilar bepul ovqat bilan ta'minlanadi. Homebase dasturi shahar fuqarolarining boshqana tizimi ro'yxatiga kiritilmasliklariga yordam beradi. **Batafsil ma'lumot uchun NYC.gov/Homebase saytiga kiring yoki 311 raqamiga qo'ng'iroq qiling.**
-  **BOLAGA ENAGALIK QILISH**
Bepul yoki arzon narxda bolaga enagalik qilish. Bolalari 6 haftadan 12 yoshgacha bo'lgan kam ta'minlangan oilalar bepul yoki arzon enagalik xizmatidan foydalanishlari mumkin. **Batafsil ma'lumot uchun NYC.gov/ACS saytiga kiring yoki 311 raqamiga qo'ng'iroq qiling.**

MAHALLALARIMIZ XAVFSIZLIGINI SAQLASH

-  **JAMOAT XAVFSIZLIGI**
Shahar immigratsiya qonunlari ijrosi bilan shug'ullanmaydi. Nyu-York politsiya boshqarmasi jinoyat qurbonlari, guvohlarning yoki yordam so'ragan boshqa shaxslarning immigratlik maqomi haqida savol so'ramaydi. Nafratdan kelib chiqqan jinoyatning qurboni bo'lgan yoki gumonda bo'lgan har bir shaxs Nyu-York politsiya boshqarmasi bilan bog'lanishi kerak. **NYPD nafratga oid jinoyatlar bilan kurashish boshqarmasi bilan bog'lanish uchun 1-646-610-5267 raqamiga qo'ng'iroq qiling.**
-  **KAMSITILISHDAN HIMOYALANISH**
Barcha Nyu-Yorkliklar ish joyi, uy va jamoat joylaridagi noqonuniy kamsitilish, qasd olish va zo'rvonliklardan xoli bo'lish huquqiga egadirlar. Shikoyat qilish uchun yoki ko'proq ma'lumot olish uchun, **311 raqamiga yoki Nyu-York inson huquqlari komissiyasi 1-718-722-3131 raqamiga qo'ng'iroq qiling.**

O'ZINGIZNING BEPUL IDNYC – SHAXSINGIZNI TASDIQLOVCHI KARTANGIZGA EGA BO'LING

-  **IDNYC kartangizni olish uchun bugunoq qabulga yoziling. 311 raqamiga qo'ng'iroq qiling va "IDNYC" so'zini ayting yoki NYC.gov/IDNYC saytiga kiring.** IDNYC bu 10 yosh va undan katta yoshdagi barcha Nyu-Yorkliklar uchun bepul shaxsni tasdiqlovchi karta bo'lib, u egasiga o'nlab ajoyib imtiyozlarni beradi. IDNYC immigratsiya maqomi bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni **to'plamaydi** va ariza beruvchining ma'lumotlari sir tutiladi. Shahar IDNYC ma'lumotlarini qonunda talab qilingan eng yuqori darajada himoya qiladi.

Telefon orqali bo'ladimi, onlayn rejimdami yoki shaxsan uchrashish asosidami, Hokimning immigratsiya masalalari bo'yicha idorasi doimo sizga yordamga hozir. 1-212-788-7654 raqami orqali dushanbadan jumagacha soat 9:00 dan 17:00 gacha bevosita bizga qo'ng'iroq qiling. Yoki NYC.gov/ImmigrantInfoDesk saytiga kirib Nyu-York Immigrantlarga ma'lumotlar infokiosklarining biridan foydalaning.